



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

**OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-
IQTISODIY MEXANIZMIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI BAHOLASH
ASOSLARI**

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
МЕХАНИЗМ УПРАВЛЕНИЯ СЕМЕЙНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ, И ОСНОВА ДЛЯ
ИХ ОЦЕНКИ**

**FACTORS AFFECTING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM OF
MANAGEMENT OF FAMILY ENTERPRISES AND BASIS FOR THEIR ASSESSMENT**

Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti “Menejment” kafedrası assistenti

Annotatsiya

Maqolada oilaviy korxonalar faoliyatini rivojlantirish va ishlab chiqarish hajmini oshirishga ta’sir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda ichki va tashqi resurslar, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi, mahsulot hajmi va sifatini oshirish mexanizmlari o‘rganilgan. Shuningdek, “oila”, “uy xo‘jaligi”, “oila xo‘jaligi”, “xonadon xo‘jaligi” va “oilaviy korxonalar xo‘jaligi” kabi tushunchalarning nazariy ta’riflari va amaliy kontekstdagi izohlariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy korxonalar, oila xo‘jaligi, uy xo‘jaligi, xonadon xo‘jaligi, ishlab chiqarish hajmi, resurslardan samarali foydalanish, oilaviy korxonalar faoliyati.

В статье анализируются основные факторы, влияющие на развитие семейного бизнеса и увеличение объемов производства. Рассматриваются механизмы наращивания внутренних и внешних ресурсов, эффективности производственных процессов, а также объема и качества продукции. Уделяется внимание теоретическим определениям и практическим пояснениям таких понятий, как «семья», «домашнее хозяйство», «семейное хозяйство», «хозяйственность» и «экономика семейного предприятия».

Ключевые слова: семейное предприятие, семейное хозяйство, домашнее хозяйство, хозяйственность, объем производства, эффективное использование ресурсов, деятельность семейного предприятия.

The article analyzes the main factors affecting the development of family businesses and increasing production volumes. The study examines mechanisms for increasing internal and external resources, the efficiency of production processes, and the volume and quality of products. Attention is also paid to the theoretical definitions and practical explanations of such concepts as “family”, “household”, “family economy”, “household economy” and “family enterprise economy”.

Keywords: family enterprise, family economy, household, household economy, production volume, efficient use of resources, family enterprise activities.

Respublikada oilaviy korxonalar faoliyati so‘nggi yillarda ijobiy o‘shish tendensiyasini namoyon etayotgan bo‘lsa-da, mazkur sohada hanuzgacha o‘z yechimini talab etuvchi qator muammolar mavjud. Aksariyat tadqiqotlarda oilaviy korxonalar rivojlanish sur‘atini oshirish omillari sifatida ichki va tashqi sharoitlar hisobga olinadi. Bugungi kunda o‘rganilayotgan tadqiqotlarda oilaviy korxonalar turli sabablarga ko‘ra tashkil etilganligi yoki faoliyat ko‘rsatishi bilan ajralib turadi [1]. Shu sababli, ularning faoliyatini boshqarishda bir qator o‘ziga xos omillar mavjud: korxonalar ichki resurslarini va moliyaviy oqimlarni boshqarish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini

muvoqilashtirish, ishchilar va oila a’zolari bilan ish yuklamasini samarali taqsimlash hamda ishlab chiqarish rejalari va xarajatlarini boshqarish.

Oilaviy korxonalarda boshqaruvning samaradorligi korxonaga egalarining ko‘p funksiyalarni bajarish qobiliyati, ichki va tashqi muhitga moslashuvchanligi va iqtisodiy xavflarga chidamliligi bilan bog‘liq. Shu sababli, hozirgi kunda oilaviy korxonalarni rivojlantirishda ularning faoliyatiga ta’sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni aniqlash va optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki respublika iqtisodiyotida bu borada hali yechimini topmagan masalalar ko‘pligini ko‘rish mumkin [2].

Oilaviy korxonalar faoliyati ko‘pincha korxonaga egalarining tashabbusi bilan boshlanadi, biroq ko‘p hollarda korxonani keyingi rivojlanish bosqichiga olib chiqish uchun zarur bo‘lgan tajriba, resurslarni samarali boshqarish va ishlab chiqarish hajmini oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lmaydi. “Oilaviy korxonalar samaradorligi indeksi” orqali butun dunyo amaliyotida oilaviy korxonalar rivojlanish sur‘atlari tahlil qilinadi va faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlanadi. Shu sababli, oilaviy korxonalar samaradorligi indeksida korxonaga ishlab chiqarish hajmi, resurslardan foydalanish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik va bozor talabiga moslashish kabi ko‘rsatkichlar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Oilaviy korxonalar samaradorligi indeksiga ta’sir qiluvchi omillar

Oilaviy korxonalar faoliyatini rivojlantirishda turli omillar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, korxonalar uchun yaratilgan ta’lim va malaka oshirish tizimi, tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlar va infratuzilma, shuningdek ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga oid statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish imkoniyatlari ushbu omillarga kiradi [3]. O‘zbekistonning “Oilaviy korxonalar samaradorligi indeksi”ga a’zo davlatlar qatoriga kirishi shunday mezonlarni o‘zida aks ettiradiki, bu mamlakatda oilaviy korxonalar faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va istiqbollarni rivojlangan davlatlar standartlari asosida baholash imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, oilaviy korxonalarni rivojlantirish yo‘lida AQSH iqtisodchisi Anurag Paul o‘rgangan. Bu tadqiqotlarda oilaviy korxonalar faoliyat hajmini oshirishga va rivojlanish sur‘atini yaxshilashga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar keltiriladi:

Moliyaviy resurslar va kredit imkoniyatlari – korxonaga ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni jalb qilish imkoniyati. Ta’lim va malaka oshirish tizimi – oilaviy korxonaga egalari va xodimlari ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi. Bozor va talabni tahlil qilish imkoniyati – ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish va mahsulotni bozor talabiga moslashtirish qobiliyati. Texnologik infratuzilma va jihozlar – ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan texnologik vositalar [4].

Ijtimoiy sharoit va mehnat resurslari – ishchi kuchi mavjudligi, ish rejimining moslashuvchanligi va mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati. Shunday qilib, oilaviy korxonalar faoliyatini rivojlantirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun nafaqat ichki resurslar, balki tashqi sharoitlar va bozor infratuzilmasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy omillar oilaviy korxonalar faoliyatini rag‘batlantirish yoki cheklashda muhim rol o‘ynaydi. Bu omillar asosan jamiyatning qadriyatlarini, me’yorlari va ishchi kuchi bilan bog‘liq

sharoitlarni o‘z ichiga oladi (Jamali). Demssiening fikricha, o‘rganilayotgan hududdagi oilaviy korxonalar egasi turli ijtimoiy va madaniy to‘siqlarga duch keladi. Shu bilan birga, oilaviy korxonalarining rivojlanishiga ijtimoiy to‘siqlar ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan, jamiyatdagi gender tengsizlik, ijtimoiy qabul qilinish darajasi va uy xo‘jaligiga yuklangan mas‘uliyatlar oilaviy korxonalarining ishlab chiqarish hajmini oshirish va faoliyatini kengaytirish imkoniyatlarini cheklovchi asosiy omillar hisoblanadi [5].

Iqtisodiy omillar oilaviy korxonalar faoliyatida va ishlab chiqarish hajmini oshirishda eng muhim elementlardan biridir. Iqtisodiy muhitda oilaviy korxonalarining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarga narx darajasi, moliyalashtirish va kredit imkoniyatlari, soliq va subsidiyalar, shuningdek raqobatbardoshlik muhiti kiradi. Ushbu omillar korxonaning ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, oilaviy korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirish va faoliyatni samarali yuritish uchun kapital, ishchi kuchi, xomashyo, bozor sharoiti, texnologiya va mavjud infratuzilma kabi omillarni hisobga olish zarur. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, jumladan davlat tomonidan taqdim etiladigan kreditlar, korxonada daromadini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Pokistonlik tadqiqotchi Raheyemning fikricha, iqtisodiy omillar oilaviy korxonalar faoliyatiga ijobiy va sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Huquqiy omillar esa kichik korxonalarining rivojlanish sur‘atini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ular konstitutsiya, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa me‘yoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Oilaviy korxonalar uchun yoritilgan ishbilarmonlik muhiti va huquqiy asoslar ishlab chiqarish hajmini oshirish va faoliyat samaradorligini ta‘minlashga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

AQShlik iqtisodchi Ryan Griffe tadqiqotida oilaviy korxonalar faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillarni beshta asosiy elementga bo‘lib o‘rgangan. Bu omillar quyidagilar: ijodkorlik, ya‘ni yangi ishlab chiqarish usullarini va mahsulotlarni ishlab chiqish qobiliyati; tavakkalchilik, ya‘ni resurslarni jalb qilgan holda ishlab chiqarish hajmini oshirishga tayyorlik; imkoniyatlarga sezgirlik, ya‘ni bozor talabini aniqlash va unga moslashish; yetakchilik, ya‘ni xodimlar va resurslarni samarali boshqarish; hamda berilgan resurslardan va imkoniyatlardan samarali foydalanish qobiliyati [2].

Velter va Smallbone tadqiqotlarida oilaviy korxonalarini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillarni mezo va makro muhitga ajratgan. Mezo muhit oilaviy korxonaga mintaqaning iqtisodiy sharoiti, mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlari va lokal infratuzilma orqali ta‘sir ko‘rsatadi. Makro muhit esa milliy va global bozor sharoitlari, tarmoqlar va iqtisodiy qonunchilik orqali korxonada ishlab chiqarish hajmini oshirishga imkon beradigan omillarni o‘z ichiga oladi [1].

MDH olimlari, jumladan A.E. Chirikova, E.R. Samedova, G.X. Gilmanova, R.R. Gallyamov, T.A. Norsun, Y.A. Semenova va N.Y. Utkin, oilaviy korxonalarining faoliyatini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rgangan.


A.S. Arbatlina oilaviy korxonalarining faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillarni rag‘batlantiruvchi va cheklovchi omillarga ajratgan. Rag‘batlantiruvchi omillar – korxonada ishlab chiqarish hajmi va daromadlarini oshirishga yordam beruvchi ichki va tashqi omillarni o‘z ichiga oladi. Tashqi omillar: mintaqadagi iqtisodiy muhit, jamiyatdagi nufuz, boshqa ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan aloqalar, tajribali mutaxassislar va hukumat qo‘llab-quvvatlashi. Ichki omillar: ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirishda qat‘iyatlilik, innovatsiyalarni joriy etish, ishchi kuchining samarali taqsimlanishi, resurslardan optimal foydalanish va qonunchilikka rioya qilish. Cheklovchi omillar – oilaviy korxonaning ishlab chiqarish hajmini oshirish va faoliyat samaradorligini ta‘minlashga to‘sqinlik qiluvchi omillar bo‘lib, ular resurs yetishmovchiligi, bozordagi raqobat, moliyaviy cheklovlar va mintaqaviy infratuzilmaning sust rivojlanishi bilan bog‘liq [3].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, oilaviy korxonalar faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillarni ikki asosiy guruhga bo‘lish mumkin.

Kiruvchi (ta‘sir qiluvchi) omillar – bu omillar ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi va korxonaning ishlab chiqarish hajmi hamda resurslardan foydalanish samaradorligini belgilaydi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ijtimoiy-demografik omillar: korxonaga egasi va xodimlarning oilaviy ahvoli, yosh, ta’lim darajasi, ishchi kuchining malakasi va tajribasi. Psixologik va shaxsiy omillar: korxonaga egasining tavakkalchilik darajasi, ijodkorligi, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishdagi qat’iyati va mehnatga bo’lgan munosabati.

Texnologik omillar: ishlab chiqarish uskunalari va texnologiyalarning mavjudligi, innovatsion yechimlarni qo’llash darajasi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari.



2-rasm. Oilaviy korxonalarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar [1]

Iqtisodiy omillar: moliyaviy mablag’lar mavjudligi, kredit va subsidiya imkoniyatlari, bozordagi narx va talab sharoiti, resurslarni xarid qilish va saqlash xarajatlari.

Chiquvchi (natijalar) omillar – bu omillar oilaviy korxonaga faoliyatining natijalarini ifodalaydi, ya’ni ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sifati, daromad va rentabellik, resurslardan foydalanish samarasi. Shuningdek, ular oila bilan chambarchas bog’liq bo’lib, korxonaga egasining oilaviy majburiyatlari va ish bilan shug’ullanish darajasi orqali ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ta’sir qiladi (2–rasm). Shu tarzda, oilaviy korxonalar faoliyatini rivojlantirish va ishlab chiqarish hajmini

o'shish uchun kiruvchi omillarni optimallashtirish va chiquvchi omillarni monitoring qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Юлдашев Д.Т. Оилавий тadbirkorликни ривожлантиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш: и.ф.ф.д. (PhD) диссер. иши. –Т.2019, 60-б.
2. Пардаева О.М. Хизмат кўрсатиш соҳасида оилавий тadbirkorликни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари: и.ф.ф.д. (PhD) диссер. иши. –Т. 2020, 56-б.
3. Kuvandikov Sh.O. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlik rolini oshirishning metodologik masalalari: i.f.d. (DSc) disser. ishi. -Samarqand, 2021, 71-b.
4. Berkinov B.B. Oilaviy tadbirkorlik salohiyatini oshirish yo'llari./ Monografiya. – Т., 2019. -125 b.
5. Khalimovna, J.K. (2023). The role of family businesses in the economy of the country: the example of Bukhara region. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(3), 91-95.

УДК:314

**ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ МАҲАЛЛАЛАРИДА ИЖТИМОЙ ОМИЛЛАРНИНГ
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИККА ТАЪСИРИ: ДЕМОГРАФИЯ, ГЕНДЕР ВА
МИГРАЦИЯ ТАҲЛИЛИ**

**ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ СТАБИЛЬНОСТЬ
В РАЙОНАХ ПРОВИНЦИИ ФЕРГАНА: АНАЛИЗ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ДАННЫХ,
ГЕНДЕРНОГО АСПЕКТА И МИГРАЦИИ.**

**INFLUENCE OF SOCIAL FACTORS ON ECONOMIC STABILITY IN
NEIGHBORHOODS OF FERGANA PROVINCE: ANALYSIS OF DEMOGRAPHY,
GENDER AND MIGRATION**

**Юсупов Муслимбек Хошимжонович,
Қувасой шаҳар ҳокимининг ёрдамчиси**

Аннотация

Мақолада Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири демография, гендер муносабатлари ва миграция кўрсаткичлари орқали таҳлил қилинди. 2020–2024 йиллар статистикаси асосида аҳоли сонининг ўсиши, меҳнат ресурслари, аёллар бандлиги ва ташқи миграция оқимлари маҳалла иқтисодиётига қандай таъсир қилаётгани ўрганилди. Таҳлилдан маълум бўлдики, демографик юкларнинг ошиши ва ёшлар миграцияси маҳаллий меҳнат бозорини заифлаштирмоқда, аёллар бандлигининг ўсиши эса хизматлар секторида янги иқтисодий имкониятлар яратмоқда. Иқтидорли мигрантлар кирими ва маблағлар трансферти маҳаллий бизнес ва уй хўжаликлари бюджетларини барқарорлаштиришда муҳим омил ҳисобланади. Мақолада норматив-ҳуқуқий база, статистик маълумотлар, жадвал ва диаграммалар асосида хулосалар берилган.

Калит сўзлар: демография, гендер, миграция, маҳалла иқтисодиёти, барқарорлик индекси

В статье анализируется влияние социальных факторов на экономическую устойчивость махаллей Ферганской области через демографию, гендерные аспекты и миграционные процессы на основе статистики 2020–2024 годов. Исследование показывает, что рост демографической нагрузки и молодежной миграции снижает устойчивость местного рынка труда, в то время как укрепление женской занятости создает новые возможности в секторе